



Германия Федератив Республикаси
Элчихонаси
Тошкент

Sharaf Raschidov Str. 15; 100017 Taschkent
Tel.: +998 71 120 84 86 Fax: +998 71 120 84 80

Viza bo'limining qabul vaqtlari:
Faqat oldindan internet orqali oldindan ro'yhatga
yozilish asosidagi qabul:
dushanbadan- jumaga qadar soat 8.00 dan- 12.00
gacha. Qo'shimcha qabul vaqtlari joriy etish
huquqi saqlab qolinadi.

2013 yil mart oyidagi holatga ko'ra

Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish haqidagi qonunning 66-68 moddalariga binoan majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqida ariza berish tartibi (Taklifnoma)

Majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqida arizani kimlar beradi?

Majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqida ariza **berilmaydigan** holatlar:

- agar boshqa davlat hududida yashash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni hamda borish-kelish yo'l xarajatlarini **arizachining o'zi** to'lasa va viza talabnomasini topshirish vaqtida **to'lashga qodirligini** asoslab bera olsa, Germaniyada yashovchi taklif qiluvchi shaxsning **erkin tarzda yozilgan taklifnomasi** yetarlidir.
- agar arizachi Germaniya fuqarosining chet ellik umr yo'ldoshi bo'lsa, erkin tarzda yozilgan taklifnoma, nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma (asli va nusxasi) va Germaniya fuqarosi bo'lmish er yoki xotinning pasportidan nusxa topshirish yetarlidir.

Qolgan barcha holatlarda Siz viza bo'limiga soat 08:00 dan 11:00 gacha oldindan qabulga yozilmasdan majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqidagi arizani quyidagi hujjatlar bilan birgalikda topshirishingiz mumkin:

- taklif qilayotgan shaxsning amaldagi fuqarolik pasporti (asl nusxasi);
- sizning O'zbekiston hududida doimiy yashash joyingizni tasdiqlovchi hujjat (odatda, sizning nemis pasportingizda turar joy qayd etiladigan varaqdagi ma'lumotlar asosida; qo'shimcha tarzda esa, ro'yxatdan o'tganligingiz haqida sizning pasportingizda qayd etilgan ma'lumot yoki mehnat vizasi asosida);
- O'zbekiston hududida yashash uchun berilgan amaldagi ruxsatnoma yoki O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan berilgan va akkreditatsiyadan o'tganligingizni tasdiqlovchi hujjat. Agar siz O'zbekiston hududida vaqtincha istiqomat qilayotgan bo'lsangiz, majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqida ariza elchixonaga topshirilishi mumkin emas;
- Siz taklif qilayotgan shaxsning pasport nusxasi
- moliyaviy xarajatlarni to'lashga qodirligingizni/ kreditni qayta to'lash imkoniyatingiz mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar. Bularga quyidagi hujjatlar kiradi: oxirgi uch oy davomida oylik maoshingiz to'langanligini tasdiqlovchi hujjat, mehnat shartnomasi, oxirgi uch oy davomida muntazam ravishda pul o'tkazilganligi haqida bankdan berilgan ma'lumotnoma va ayniqsa, sizning to'lashga qodirligingizni tasdiqlovchi hisob raqamingizdan yangi ko'chirma.

Iltimos, sizda mavjud bo'lgan barcha tasdiqlovchi hujjatlarning aslini va nusxasini taqdim eting. Tasdiqlovchi hujjatlarning faqat birinigina (masalan, mehnat shartnomasini) taqdim etish moliyaviy xarajatlarni to'lashga qodirligingizni ko'p hollarda tasdiqlay olmaydi.

Majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqida ariza topshirilayotganda, 25 yevro miqdoridagi badal AQSH dollarida naqd pulda to'lanadi.

Taklif qiluvchining o'z zimmasiga oladigan majburiyatlari

Sizning majburiyatlaringiz Siz taklif etayotgan chet el fuqarosining istiqomat qilishi bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy xarajatlarni, shu jumladan, turar joy bilan ta'minlash, kasal bo'lib qolsa, davolash va parvarishlashni qoplashni o'z ichiga oladi,. Qonuniy huquqlarga asoslangan xarajatlar ham shular jumlasidandir (masalan, ijtimoiy huquqning 2 yoki 12 kodeksiga yoki siyosiy boshpana so'rayotgan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish haqidagi qonunga muvofiq ijtimoiy yordam ko'rsatish). Siz kasallik holatida yuzaga keladigan xarajatlarni qoplash majburiyatini olganligingizga qaramasdan, arizachining o'zi ham elchixonaga viza talabnomasini topshirish vaqtida tibbiy sug'urtani yetarli miqdorda qoplay olishi majburiyatini tasdiqlashi lozim. Ya'ni, arizachi elchixonaga viza talabnomasini topshirish vaqtida tibbiy sug'urtani yetarli miqdorda qoplay olishini har qanday holatda ham tasdiqlay olishi shart.

Bundan tashqari, Sizning majburiyatlaringiz qatoriga arizachining davlat hududidan vaqtincha chiqishi bilan bog'liq bo'lgan (misol uchun, aviachipta) va davlat hududida bo'lishning majburiy yakunlanishi (masalan, deportatsiya qilish) bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ham kiradi. Ularga shaxs va uning yukini chet eldagi belgilangan manzilga yetkazish bilan bog'liq yo'l xarajatlari, hamroh berish, hujjatlarni tarjima qilish, ovqatlantirish va qamoqqa olinishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan xarajatlar ham kiradi. Siz biror kimsa uchun qabul qilgan majburiyatlar o'sha shaxs Germaniya Federativ Respublikasi hududini tark etishi yoki unga Germaniyada boshqa maqsadlar bilan bog'liq yangi viza berilishiga qadar kuchda qoladi. Agar Siz qabul qilgan majburiyatlaringizni bajarmasangiz, yuzaga kelgan xarajatlar sizdan majburiy ravishda undirilishi mumkin.

Ataylab noto'g'ri va noto'liq ma'lumotlar berish qonuniy ravishda jazolanishga olib boradi (Germaniya Federativ Respublikasi hududida bo'lish haqidagi qonunning 95 moddasiga muvofiq) va ushbu jazo uch yilgacha qamoq muddati yoki pul jarimasi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Siz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotlar Germaniya Federativ Respublikasi hududida bo'lish haqidagi qoidaning 69 moddasi 2 qismi 2 h bandiga muvofiq saqlanadi.

Majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqidagi arizaning amal qilish muddati:

Viza so'rovnomasini majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqidagi ariza topshirilgan kundan boshlab olti oy davomida topshirilishi lozim.

Moliyaviy to'lovlarga qodirlik:

Agar Siz moliyaviy to'lovlarga qodirligingizni tasdiqlay olmasangiz, arizachi viza so'rovnomasini topshirayotganda o'zining moliyaviy qodirligini tasdiqlashi shart. Bunday hollarda Sizning majburiyatlarni o'z zimmangizga olish haqidagi arizangiz arizachining mamlakat hududida bo'lishini moliyalashtira olishingizni tasdig'i sifatida qabul qilinmaydi, balki, faqat taklifnoma sifatida xizmat qiladi. Biroq, bu Sizni Germaniya Federativ Respublikasi hududida bo'lish haqidagi qonunning 66-68 moddalariga ko'ra qabul qilgan moliyaviy majburiyatlaringizdan ozod qilmaydi.